

PEDAGOGİK VA PSIXOLOGİK TADQIQOTLAR

ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ | PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL STUDIES

XALLOKOVA Maksudaxon Ergashevna

Farg‘ona davlat universiteti

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

v.b professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15187707>

TARBIYACHINING PEDAGOGİK FAOLIYATIDA KASBIY REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISH USULLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada tarbiyachining pedagogik faoliyatida kasbiy refleksiyaning rivojlantirish, ta'rixiy olimlar tomonidan pedagogda refleksiyaning shakllantirish bo'yicha ilmiy qarashlari, refleksiyaning rivojlantirish usullari, pedagogik faoliyatda innovatsion yondashuv ahamiyati, reflektiv innovatsion amaliyot kabi masalalar haqida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlar: refleksiya, intellektual tizim, reflektiv qobiliyat, reflektiv "Men", reflektiv innovatsion texnologiyalar, reflektiv innovatsion amaliyot, innovatsion muhit, bosqichlar.

METHODS FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL REFLEX IN THE PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE EDUCATOR

ANNOTATION

In the pedagogical activity of the educator, opinions are given about such issues as the development of professional reflex, scientific views on the formation of reflex in the educator by taurist scientists, methods for the development of reflex, the importance of an innovative approach in pedagogical activity, reflexive innovative practice.

Keywords: reflection, intellectual system, reflexive capacity, reflexive "I", reflexive innovative technologies, reflexive innovative practice, innovative environment, stages.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОСПИТАТЕЛЯ

АННОТАЦИЯ

В статье даны мнения по таким вопросам, как развитие профессиональной рефлексии в педагогической деятельности воспитателя, научные взгляды ученых-историков на формирование рефлексии у педагога, методы развития рефлексии, значение инновационного подхода в педагогической деятельности, рефлексивно-Инновационная практика.

Ключевые слова: рефлексия, интеллектуальная система, рефлексивная способность, рефлексивное "я", рефлексивные инновационные технологии, рефлексивная Инновационная практика, инновационная среда, этапы.

KIRISH

O‘zbekistonda so‘nggi yillar davomida Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi sanalmish Taraqqiyot strategiyasi doirasida, rivojlangan davlatlar kabi uzluksiz ta‘lim tizimini muntazam takomillashtirib borish, sifatli ta‘lim-tarbiya berish, malakali kadrlarni tayyorlash bo‘yicha sezilarli islohotlar amalga oshirildi.

O‘zbekistonda ta‘lim tizimini kompleks rivojlantirish, malakali kadrlar tayyorlash maqsadlariga katta kuch va mablag‘lar yo‘naltirilmoqda. MTTgacha ta‘lim, MTT va oliy ta‘lim tizimlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatida sifat o‘zgarishlari ro‘y bermoqda. “Biz ustozni otaday ulug‘ deb bilgan, doimo ardoqlagan ma‘rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o‘qituvchi, muallim deganda o‘zim uchun eng aziz va hurmatli bo‘lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman.

Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta‘lim berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan, – dedi davlat rahbari yig‘ilish avvalida. – Bugungi kunda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko‘makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyolilardir” – deya prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ardoq bilan tilga olgan [1].

So‘nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar pedagoglarning kasbiy faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlamini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta‘kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, pedagogning kasbiy refleksiya tashkil etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Refleksiya (lot. «reflexio» - orqaga qaytish) - «har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlamini anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir; inson ma‘naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin xislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir» [2].

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi Yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida. o‘zi fikr yuritishi jarayoni, o‘z fikrlari mazmunini tahlil qilishga e‘tiborini jalb qilishni anglatgan (Dekart). Sokrat. Platon, Lokk va boshqa yunon faylasuflari refleksiyani insonning o‘z-o‘zini bilishga, nimalarga qodir ekanligini e‘tirof etishga qaratilgan faoliyati ekanligini ta‘kidlashadi.

Kant, Gegel, Fixte, Shelling kabi Yevropa faylasuflari esa refleksiyaga insonning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosi sifatida qarashganlar. Leybnits konsepsiyasiga muvofiq refleksiya insonning appersepsiyaga (idrokning inson o‘tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog‘liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi [2].

Psixologiyada refleksiya «subyekt tomonidan o zining ichki psixik jarayoni va holatlarini bilish, nazorat qilish» mazmunida talqin qilinadi [3].

Insonning ijodiy muammolari hal etishda ro‘y beradigan fikrlashdagi refleksiyani o‘rganib, olimlar uni fikrlovchi subyektning o‘z - o‘zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (I.N.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko‘rsatkichi (A.Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta‘rif berib baholaydilar [4].

I.S.Ladenko refleksiyani intellektual tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil qilishdagi ahamiyatini intellektual faoliyatning malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish ehtiyoji hamda nutq, xotira, tasavvurlarning ichki va tashqi shakllari haqida psixologik qarashlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan bog‘laydi.

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘plab olimlar refleksiyaning I.N. Semyonov tomonidan taklif qilingan tasnifi (intellektual, shaxsiy, kommunikativ, kooperativ)ga tayanadilar.

Refleksiv qobiliyatlamini tarbiyachi pedagogik faoliyatining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator mualliflar (A.A.Bizyayeva, V.V.Vetrova, E.N.Pexota, I.A.Stetsenko, LG.Tatur, AV.Xristeva va boshqalar) ulami bo‘lajak pedagoglarning pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g‘oyalarni ilgari suradilar.

MUHOKAMALAR

Inson psixikasi ichki tizimlari tashqi ijtimoiy faoliyat strukturasi qizg'in o'zlashtirish jarayonida shakllanishini, tashqi faoiyatning ichki faoliyatga o'tishini ta'minlaydigan interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) nazariyasiga (P.Jane, J.Piaje, A.Vallon, A.A.Leontev va boshqalar)[5] asoslanib, aytish mumkinki, kasbiy refleksiyaning rivojlanish muammosi tarbiyachi va tarbiyachining pedagogik mahoratini oshirish asosi sifatida o'rganiladi.

Tarbiyachi pedagogik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan ko'p yillik tajribalar asosida qilingan nazariy xulosalar pedagogik mahoratning rivojlanish jarayonini beshta elementdan iborat tizim asosida o'rganish imkoniyatini beradi. Bu tarbiyachining kasbiy refleksiya rivojlangani sari kechadigan va uning asosida uzluksiz pedagogik kasbiy mahoratini va o'z - o'zini takomillashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan jarayonlarni chuqurroq tushunishni ta'minlaydi.

O'z-o'zini bilish jarayoni tarbiyachining pedagogik mahorati doirasida ma'lumotlarni qayd qilish darajasida kechadi, bunda refleksiyaning passiv shakli ustuvorlik qiladi. Tarbiyachi pedagogik faoliyatida yuzaga kelayotgan turli qiyinchiliklar va muammolarning sabablarini, erishilayotgan yutuqlar va natijalarni shunchaki qayd qilib boradi.

O'z - o'zini anglash jarayoni tarbiyachining o'z faoliyati va unda o'ziga nisbatan «metapozitsiya» (noaniq pozitsiyada)da turib, o'ziga tashqaridan qarash, o'zini kuzatish malakasini ko'zda tutadi. Bunda, interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o'tishi) hodisasi amalga oshadi, kasbiy qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari rasmiy lashtiriladi; faoliyatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad aniqlanadi reflektiv - «MEN» shakllanadi. Bu tarbiyachining dolzarb rivojlanish zonasi bilan bog'liq.

O'z - o'zini belgilash jarayonida boshlang'ich daraja kasbiy ehtiyojlarini hisobga olib belgilanadi va jadal imkoniyatlar asosida faoliyat rejalashtiriladi Strategik, taktik va tezkor vazifalar shakllantiriladi. Haqiqiy «MEN» va ideal «MEN» nisbatlanadi.[6] Bu tarbiyachining eng yaqin rivojlanish darajasi [7] bilan bog'liq.

O'z - o'zini rivojlantirish jarayonida tarbiyachining kasbiy faoliyat davomida takomillashtirilgan pedagogik mahorati, reflektivlangan (ya'ni avval foydalanilgan va ularning samaradorligini baholash natijasida tobora optimal bo'lib chiqqan metodlar) harakat usullari va metodlarining o'sishi sodir bo'ladi.

O'z - o'zini nazorat qilish tarbiyachi pedagogik faoliyati jarayonida nazariy va amaliy tajribalar asosida, o'z - o'zini kasbiy jihatdan nazorat qilib, pedagogik mahoratini yanada takomillashtirib borishning ikkinchi shakli boshlanishini nazarda tutadi.

Reflektiv – innovatsion texnologiyalarning barcha jarayonlarni quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- 1) yangi g'oyalar izlash bosqichi;
- 2) yangiliklar yuzaga keltirish bosqichi;
- 3) yangiliklar kiritishni amalga oshirish;
- 4) yangiliklarni mustahkamlash bosqichi.

Yangi g'oyalar izlash bosqichi «innovatsion pedagogika» asoslari kursi bo'yicha axborot innovatsion sharoit yuzaga keltirish, MTT muammo va talablarini dolzarblashtirish, maqsad, yangilik yaratish g'oyalarini ifoda etish bo'yicha dastlabki ishlar, bo'lajak MTT sharoitini tasavvur etishdan iborat. Yangilik kiritishni shakllantirish bosqichi yangilik kiritish ishlarini faol ravishda loyihalashtirish, tanlangan yangiliklarni sinab ko'rish, MTTda yangiliklarni kiritish bo'yicha qaror qabul qilishdan iborat.

Yangiliklarni kiritish bosqichini amalga oshirish MTTda tajriba o'tkazish uchun sharoitlar yaratish, tajriba jarayonini tahlil qilib borish, yangilik kiritish va mazmunini tuzatib borishdan iborat bo'ladi.

Yangilik kiritishni mustahkamlash bosqichi MTTning yangidan shakllantirilgan obrazini tarbiyachilar ongida mustahkamlash, tarbiyachining innovatsion harakatlarini mukammallashtirish bo'yicha psixokorreksion metodik ishlardan tashkil topadi.

Barcha to'rt bosqichning asosiy maqsadi yangilikni o'zlashtirishni rivojlantirish va o'zlashtirilayotgan yangilikka subyektiv munosabatda bo'lishdan iborat.

NATIJALAR

Refleksiya umumiy ko'rinishda bu qayta anglashdir. Refleksiv muhit yaratish tarbiyachiga nisbatan alohida, juda yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradi. Unda faqatgina uning, shaxsiy va intellektual tajribasi yetarli emas bo'lib, balki maqsadga erishish yo'lida o'ziga hos to'siq (faqatgina vosita emas) bo'ladi. Shu bilan birga muammoli intellektual qarama-qarshilik sifatida ochiladi.

Ma'lum, bilim va mahoratlar to'qnashuvi ko'rinishida dolzarblashadi. Bu innovatsion vaziyat sharoitlari hususiyatlari bilan pedagog o'ziga tushunarli harakat usullarini amalga oshiradi. Shu bilan birga uni yechishda nizolar yuzaga keltiruvchi hususiyatlari aniqlanadi. Ya'ni tarbiyachining shaxs sifatida yuzaga kelgan harakat usullari bilan unga aniq bir vaziyatda ko'rsatilgan haqiqiy talablar o'rtasidagi shaxsiy hususiyatdagi qarama-qarshiliklar. Shunday qilib, muammoning mohiyati xal etish jarayonida «men» ifodasi bilan (ya'ni, intellektual va shaxsiy iboradagi) yangilik kiritish jarayonining talab hamda harakatlari o'ziga xosligi o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklardan iborat bo'ladi.

Bu qarama-qarshiliklar mustaqil tarzda yangilik ochishga olib keladi va bir vaqtning o'zida fikrlashni qayta tashkil etish, shaxsning faol qayta shakllantirishdan iborat shaxsiy va intellektual rivojlanish sifatida sodir bo'ladi. Ijodiy faoliyatda yangilikning yaratilishi shaxsda maxsus yangiliklar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va u tarbiyachi o'zi haqidagi tassavvuri o'zgarishidan iborat bo'ladi.

Refleksiv innovatsion amaliyot tarbiyachi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o'z-o'ziga, o'z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o'ziga hos ijodiy munosabatda bo'lish tushuniladi. Bular tarbiyachi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki zamonaviy vaziyatlar murakkabligi dinamizmi undan odatiy mutaxassislik ko'nikmalardan holi bo'lish, erkinlikni talab qiladi. Shu bilan birga tarbiyachi innovatsion faoliyatini ko'rsatuvchi hususiyatlari bu yuzaga kelgan vaziyatda maksimal ravishda erkin bo'lish va MTTda yangilikni joriy qilishni o'zi belgilay olish qobiliyati hisoblanadi. Bu bosqichda innovatsion harakatlar rivojlanish jarayonini biz shunday tasavvur qilamiz: yangiliklarni yaratish va joriy qilishga qarshilik qiluvchi bir xildagi odatlarni «buzish» va «qayta tuzish» demakdir.

Xususan, eski odatlarni buzish, ularni yo'q qilib yuborish emas, chunki ular osonlik bilan yangilari bilan almashtiriladi. Ushbu bosqichda innovatsion harakatlarni yuzaga keltirish uslublariga quyidagilarni kiritish mumkin: polilog, munozara, refleksiv, inversiya, intervyu. S.N.Maslov fikricha, ijodga o'rgatish mumkin emas, ijobiy qobiliyatlarni yuzaga keltirish mumkin emas, xuddi u qandaydir ko'nikma yoki bilim va mahoratlar yig'indisi sifatidadir. Ijodda chiniqqanlik, ijodiy qobiliyatlarni taraqqiy qilish zarurligini bildiradi.

Ana shu g'oyani biz katta kurs talabalari bilan refleksiv-innovatsion amaliyoti mavzusiga kiritdik. Amaliyotda metodologik va metodik mavzuda birgalikda ijod qilishni yoyish, refleksiv muhit g'oyasiga tayandik.

Asosiy masalalardan biri qulay innovatsion muhit yaratishdan iborat. Refleksiv innovatsion amaliyot ishtirokchilari haqiqiy pedagog sharoitida bo'lishlari sababli, qisqa vaqt ichida ilgarigi stereotiplarni bartaraf qila oladilar. Refleksiv innovatsion amaliyot ilgarigi tajribani dolzarblashtirish, uni qayta anglash, bo'lajak MTTning yangi muammo va munosabatlarini aniqlash uchun imkon beradi.

Asosiy masalalardan biri o'z-o'zini va o'z faoliyatini qayta anglash jarayonini yangiliklar yaratish sohasiga yo'naltirishdir. Qayta anglashga talab muammoli, nizoli vaziyatga duch kelganda paydo bo'ladi, unda ilgarigi tajriba tubdan o'zgargan sharoitlarda mutaxassislik sohasida kerakli natijalarni ta'minlashga qodir bo'lmay qoladi. Ushbu vaziyatni ijodiy inqiroz sifatida ifoda etish mumkin.

Buni ijobiy tomoni shundan iboratki, inqiroz holati yangilik izlashga yordam beradi, ammo bunga erisha olinmasa unda vaziyatning keyingi rivojlanishi o'zi barbod bo'lishiga olib keladi.

Alohida ijodiy muhit yaratish natijasida ushbu muammo bo'yicha ma'lumot va tajriba almashish sodir bo'libgina qolmay, undan tashqari alohida birga ijod qilish muhitini yaratish hisobiga, yangi fikrlarga erishiladi, u keyinchalik innovatsion faoliyat asosi bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Shunday qilib, olimlarning tadqiqotlariga tayanib, ta'kidlash mumkinki, tarbiyachining kasbiy pedagogik mahoratini rivojlantirish muammosini faqat uning kasbiy refleksiyasini takomillashtirish asosida hal qilish mumkin. Kasbiy pedagogik refleksiya nafaqat kasbiy faoliyat, balki, bilim, ko'nikma va malakalarning o'sishini ta'minlaydi hamda ushbu faoliyatni takomillashtirish asosi ham sanaiadi.

Har qanday tarbiyachi o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirishga hatto juda kuchli intilishi bo'lsa ham, o'zining shaxsiy rivojlanish dasturini maxsus malakalarsiz belgilay olmaydi, bu pedagogic faoliyatdagi muvaffaqiyatga erishish, tarbiyachining o'z ustida ishlashga tayyorgarligi, uning o'z-o'zini tahlil qila olishi, o'z-o'zini tashhislash qobiliyatining qanchalik shakllanganligi bilan bog'liq.

IQTIBOSLAR. ЧОСКИ. REFERENCES.

1. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya-tizimi-taraqiyotning-yangi-bosqichi-muhokama-qilindi>
2. Filosofskaya entsiklopediya. - M : Sovetsk aya entsiklopediya 1967. - 4-L 499 b
3. 6 Kratkiy psixologicheskiy slovar. / Red. - sost. L.A.Karienko. 1998. - 318 b.
4. A.Xoliqov Pedagogik mahorat., Toshkent., “Iqtisod-moliya” 2011 y 291 b.
5. Краткий психологический словарь /Red - sost. L.A.Karpenko; A.VPetrovakogo, M.G.Yaroshchevskogo. — Rostov -na - Domi.1998, -106, 137, 257. J-Piatje. Izbrannis psixologichcelrie tradi. Psixologiya intellekta. Genезis cliisla u rebenka. Logjka i psixologiya. -M 1969; A.A.Leontev. Deyatelnost Soznanie. Lichnost. -M 1975
6. Bens RV.Razvitic Ya - kontseptsii i vospitanie. -M., 1986
7. Kiatkiy psixologicheskiy slovar > Red. -soet. L.A.Karpenko; Pod obshch. Red. A.V.Pctiavskogo, 1998. -117.
8. Maksudakhon KHALLOKOVA, Gulsanam OMONJONOVA, Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriy san’at orqali emotsional intellektni rivojlantirish., Society and innovations., Special Issue – 03 (2025) / ISSN 2181-1415 Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index>